

Date: 27th April-2026

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY YECHIMLARI

Avazova Xushro‘ybibi Kamoltdin qizi

Nizomiy nomidagi O‘zMPU Tarix fakulteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi va uning huquqiy asoslari tahlil qilingan. Korrupsiya tushunchasi, uning jamiyat va davlat rivojiga ta’siri hamda unga qarshi kurashishning asosiy huquqiy mexanizmlari yoritilgan. Shu bilan birga, O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va qonunchilik tizimi haqida umumiy ma’lumot berilgan. Maqolada davlat boshqaruvida shaffoflikni ta’minlash, elektron tizimlarni joriy etish va huquqiy madaniyatni oshirish kabi muhim yo‘nalishlar ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, huquqiy davlat, qonun ustuvorligi, korrupsiyaga qarshi kurash, shaffoflik, javobgarlik, elektron hukumat, huquqiy madaniyat, davlat boshqaruvi, islohotlar.

Annotation: This article analyzes the issue of combating corruption and its legal foundations. It explains the concept of corruption, its negative impact on the development of society and the state, and the main legal mechanisms for preventing and fighting it. The article also provides general information about the reforms being implemented in Uzbekistan in the field of anti-corruption and the national legislative framework. In addition, important directions such as ensuring transparency in public administration, introducing electronic governance systems and improving legal culture are discussed.

Keywords: corruption, legal state, rule of law, anti-corruption, transparency, accountability, e-government, legal culture, public administration, reforms

Ayni paytda globallashtirish jarayonida korrupsiya muammosi dunyoning deyarli ko‘pchilik davlatlarida uchraydigan va jamiyat rivojiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Korrupsiya davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini susaytiradi, iqtisodiy o‘rni sekinlashtiradi hamda jamiyatda ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarining buzilishiga olib keladi. Korrupsiya nafaqat iqtisodiy jihatdan zarar yetkazadi, balki fuqarolarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchini ham zaiflashtiradi. Buning oqibatida jamiyatda qonun ustuvorligi tamoyiliga nisbatan befarqlik yuzaga kelishi mumkin. Shu sababdan ham korrupsiyaga qarshi kurashish har bir huquqiy davlatning eng muhim vazifalaridan biri ekanligini anglatadi. O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, ochiqlik va shaffoflikni oshirish, elektron hukumat tizimini rivojlantirish hamda qonunchilikni yanada kuchaytirish orqali korrupsion holatlarning oldini olishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish, fuqarolarning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish ham bu masalaning muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Sababi,



Date: 27th April-2026

korrupsiyaga qarshi kurash faqatgina davlat organlarini emas, balki butun xalqning umumiy vazifasidir.

Bugungi kunda yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi yanada takomillashtirilib borilmoqda va ushbu jarayon mustahkam huquqiy asosga ega. Bu yo‘nalishda bir qancha muhim normative - huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ular korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi samarali kurashishni ta‘minlashga xizmat qiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat boshqaruvi qonuniylik, adolat va inson huquqlarining ustuvorligi prinsiplariga asoslanishi belgilab qo‘yilgan. Bu esa barcha davlat organlari faoliyatida qonun ustuvorligini ta‘minlashning asosiy huquqiy poydevori hisoblanadi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida eng muhim hujjatlardan biri — “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun hisoblanadi. Ushbu qonun 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan bo‘lib, unda korrupsiyaning oldini olish, uni aniqlash, unga chek qo‘yish hamda huquqbuzarliklarni bartaraf etishga qaratilgan aniq mexanizmlar belgilangan. Bundan tashqari, mazkur qonun asosida davlat organlarining ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash, mansabdor shaxslarning javobgarligini kuchaytirish va fuqarolarning huquqiy ongini oshirish kabi muhim vazifalar amalga oshirilmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarasini oshirish maqsadida O‘zbekistonda maxsus vakolatli organlar va huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar faoliyat yuritadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ushbu sohada asosiy organ sifatida ish olib boradi. U 2020-yil 29-iyunda Prezident farmoni asosida tashkil etilgan. Uning vazifalari qatoriga pora berish va pora olishning oldini olishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish, korrupsion omillarni aniqlash, tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish kiradi. Shu bilan birga, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar ham muhim o‘rin tutadi. Xususan bularga, Prokuratura, Ichki ishlar organlari, Sud tizim va boshqa organlar kiradi. Prokuratura — qonunlarning aniq va bir xil ijro etilishini nazorat qiladi hamda qonun buzilish holatlarini aniqlaydi. Ichki ishlar organlari esa pora olish va pora berish bilan bog‘liq jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish bilan shug‘ullanadi. Sud tizimi—qonun asosida adolatli qarorlar qabul qilib, jinoyatchilarga nisbatan chora qo‘llyadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimida eng muhim tamoyillardan biri – javobgarlikning muqarrarligi hisoblanadi. Ya‘ni, korrupsiyaga qo‘l urgan shaxs, lavozimidan qat‘iy nazar, qonun oldida javobgar hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 210-, 211-, 212-moddalarida korrupsion jinoyatlar, ya‘ni pora olish, pora berish hamda uni olish va berishda vositachilik holatlari uchun javobgarlik belgilangan. Korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida zamonaviy texnologiyalar va raqamlashtirish tizimlari muhim o‘rin tutadi. Hozirda davlat boshqaruvida elektron tizimlarning joriy etilishi insonlar faoliyatini kamaytirib, shaffoflikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Buning natijasida, korrupsion holatlarning yuzaga kelishi sezilarli darajada kamaytiradi. Mamlakatimizda “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish natijasida davlat xizmatlarini raqamlashtirish bo‘yicha ko‘pgina ishlar qilinmoqda. Fuqarolar endilikda ko‘plab davlat xizmatlaridan onlayn tarzda foydalanishlari mumkin. Bu jarayon ortiqcha hujjat aylanishini ham kamaytiradi. Natijada, onlayn ro‘yxatdan o‘tish, ma‘lumot olish



Date: 27th April-2026

kabi xizmatlar tezkor va ochiq shaklda amalga oshmoqda. Xulosa shuki, korrupsiyaga qarshi kurashish davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu mustahkam huquqiy asosga ega bo'lib, Konstitutsiya, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun va Jinoyat kodeksining tegishli moddalari orqali tartibga solinadi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda javobgarlikning muqarrarligi va elektron tizimlarning joriy etilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, raqamlashtirish jarayonlari shaffoflikni oshiradi. Adolatsiz qarorlar qabul qilinishi bo'lmaydi va bu jarayonning oldini oladi. Bu usul davlat boshqaruvida ochiqlik, ishonchlilikni ta'minlaydi. Bundan tashqari, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish orqali bu kabi holatlarni oldini olish ham mumkin. Jamiyatda hamma tartib-qoidalarga amal qilishi va o'z haq-huquqlarini yanada mukammal bilishi orqali bu kabi narsalar sodir bo'lishini kamaytirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun (2017-yil 3-yanvar). –1–6-bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.–Toshkent:Adolat, 2024.–150–165-bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks. – 80– 95-bet.
5. "Davlat va huquq nazariyasi" darsligi.

